

## KOREYS TILINI O'QITISHDA YANGI SO'ZLARNI YODLASHNING INTERFAOL USULLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14553001>

**Mirzayev Shukurullo Abduqodir o'g'li**

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi*

*E-mail: [shukurullo5599@gmail.com](mailto:shukurullo5599@gmail.com)*

*+99899-082-94-52*

### **Annotatsiya**

Barcha chet tili o'rganuvchilari kabi koreys tilini o'rganuvchilar ham qiynaladigan muammo bu - yangi so'zlarni yodlashning qiyinchiligidir. Chunki o'quvchilar so'z yodlashda eskirgan, ananaviy usullardan foydalanishadi. Lekin hozirgi rivojlanib borayotgan dunyoda chet tillarni yodlashning ham bir qancha zamonaviy usullari ishlab chiqilgan. Ushbu maqola orqali koreys tilida so'z yodlashning samarali usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

### **Kalit so'zlar**

so'z yodlash usullari, sinonimik qator, maqol va iboralar, mnemonika, audio-lingvistik usul, kartalar metodi.

Bizga ma'lumki chet tilini o'rganish jarayonida muvaffaqiyatga erishishning asosi - bu muloqot qilish va fikrlaringizni ravon ifoda etishga yordam beradigan keng lug'at zahirasiga ega bo'lishdir. Biroq yangi lug'atlarni yodlash chet tili o'rganuvchilari duch keladigan asosiy muammolardan biridir. Shuni esda tutish kerakki, nafaqat yangi so'zlarni o'rganish, balki ularning sonini muntazam ravishda oshirish va amalda qo'llash ham muhimdir.

Yangi so'zlarni yodlash usullari qanday? Qanday qilib so'zlarni tez va samarali o'rganish mumkin? Ushbu maqola orqali so'zlarni yodlashning bir necha usullarini ko'rib chiqamiz:

### **1. Stikerlar metodi — 스티커 방식**

Bu usul - so'z yodlashning eng ananaviy usullaridan biri bo'lib, bunda sinfxonadagi mavjud narsa va buyumlar nomlari maxsus stikerlarga yoziladi va bu so'zlar yozilgan stikerlar tegishli narsalarga yopishtiriladi. Ushbu metordan foydalanish orqali o'rganuvchilar so'z yodlashga alohida e'tibor qilmasdan

avtomatik ravishda yangi soʻzlarni yodlay olishadi. **Stikerlar metodi (스티커 방식)** ning asosiy kamchiligi maʼlum bir mavzu boʻyicha cheklangan miqdordagi soʻzlarnigina yodlash mumkin. (masalan, sinf jihozlari, oʻquv qurollari, uy-roʻgʻor va oshxona jihozlari kabi).

## 2. Kartalar metodi — 카드 방식

Bu usul juda oddiy shu bilan birga eng ommabop usullardan biridir. Bu usuldan foydalanish uchun bir xil hajmdagi kartalar kerak boʻladi. Kartaning bir tomonida soʻzning oʻzbek tilidagi shakli va ikkinchi tomonida uning koreys tilidagi tarjimasi yoziladi. Kartalarni ketma-ket oʻtkazish natijasida kartalardan soʻzlarni oʻrganasiz. Ijobiy jihat - bu soʻzlarni nafaqat uyda, balki tashqarida ham oʻrganish, boʻsh vaqtda oson va qulay foydalanish imkoniyatidir. Bundan tashqari siz soʻzlarni mavzularga boʻlgan holda turli kartalar guruhidan foydalanishingiz mumkin. Bu sizga barcha kartalarni bir vaqtning oʻzida olib yurmaslikka imkon beradi.

## 3. Hikoyani ishlab chiqish — 문장 만들기

Ushbu usul yangi soʻzlardan turli xil birikmalar va gaplar yasashdan iboratdir. **Hikoyani ishlab chiqish (문장 만들기)** metod nafaqat yangi soʻzlarni yodlash balki, talabalarning soʻzlashuv koʻnikmasini ham rivojlantirishda ham samarali hisoblanadi. Bu usul orqali bir-biriga bogʻliq boʻlgan oz sonli soʻzlarni yodlab ushbu soʻzlardan kichik hikoya ham tuzish mumkin. oʻrganishingiz kerak boʻlgan hollarda mos keladi. Bunda talabalarning vazifasi soʻzlardan foydalangan holda qisqa hikoya yoki kulgili hikoya yozishdir. Tilni bilish darajasiga qarab, matn soda gaplardan tuziladi va talaba oʻzi yozgan hikoyasini gapirib berishi shart.

Misol uchun koreys tilida quyidagi soʻzdan foydalanib gap tuzib koʻramiz.

예: 비싸요

비싸요
값이 비싸요
옷 값이 비싸요
한국에 옷 값이 비싸요
한국에 겨울 옷 값이 비싸요

## 4. MAQOLLAR VA IBORALARDAN FOYDALANISH.

Bu usul juda tor doiradagi soʻzlar bilan qoʻllanilishi mumkin. Va bu usuldan foydalanishda oʻqituvchi asosiy rolni egallaydi. Oʻqituvchi mavzu yuzasidan talabalarga yangi soʻzlarni beradi. Soʻzlar yozilgandan soʻng ushbu soʻzlar qatnashan maqollar yoki iboralarning mazmuni va qaysi hollarda qoʻllanishi bilan talabalarni tanishtiradi.

Tilning paremiologik va frazeologik fondi hisoblangan maqol hamda iboralardan foydalangan holda yangi soʻzlarni yodlash nafaqat soʻzlarni eslab qolish, balki toʻgʻri talaffuz qilish, oʻrganilayotgan til madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Quyida bazi soʻzlar asosida soʻz yodlashning maqol va iboralar metodiga misollar koʻrib chiqamiz.

Misol— 예:

1. 곱다 (chiroyli) → 가는 말이 고와야 오는 말이 곱다 - salomga yarasha alik.
2. 무소식 (xabarsizlik) → 무소식이 희소식 - xabar yoʻqligi yaxshi xabar.
3. 걸음 (qadam) → 천 리 길도 한 걸음부터 - boshlash muhimdir.
4. 감다 (yummoq) → 눈을 감다 - koʻzni yummoq.
5. 잡다 (ushlamoq) → 가닥을 잡다 - muammoning yechimini topmoq va boshqalar.

## 5. MNEMONIKA - 기억술 방식

Bugungi kunda soʻzlarni yodlashning eng mashhur usullaridan biri mnemonikadir. Bu nima? Mnemonika - bu bir-biri bilan assotsiatsiyalar va bogʻlanishlar orqali soʻzlarni yodlash usullarini osonlashtiradigan texnika va usullar. Mnemonika xotira va fikrlashni faol rivojlantiradi. Asosiy vazifa - tasavvurda turli yoʻllar bilan bogʻlangan tasvirlarni yaratishdir. Rasmlar rangli, katta va batafsil boʻlishi kerak. Mnemonika yordamida chet tilidagi soʻzlarni oʻrganish ancha oson. Bunda asosiy talab yodlamayotgan soʻzga bogʻliq biror rasmni tasavvur qilishdir.

## 6. SINONIMIK QATOR - 동의어의 줄

Usulning mohiyati - oʻrganilayotganda yangi sinonimlar kiritib boriladigan qaydnomalar daftarini saqlashdir. Bu chet tilida feʼl va sifatlarni oʻrganishning yaxshi usulidir. Koʻp sonli sinonimlarga ega boʻlish talabalarga oʻz fikrlaringizni chet tilida aniq ifodalash imkonini beradi va suhbat davomida kerakli soʻzni qiyinchilik bilan izlash zaruratidan xalos qiladi.

Masalan:

예쁘다, 아름답다, 멋있다;

이용하다, 사용하다, 쓰다, 활용하다

Bu usulning kamchiligi sinonimlar orasidagi farqlarni eslab qolish muammosidir.

### 7. O'QISH METODI — 읽기 방식

Chet tilida yangi adabiyotlarni o'qish samarali o'rganishning eng muhim usullaridan biridir, bu metod yordamida biz erkin muloqot qilish uchun zarur bo'lgan yangi so'zlar va iboralarni o'rganamiz, so'z boyligimizni to'ldiramiz. O'qish metodining muhim jihati - o'zingizni qiziqtirgan kitobni tanlashdir. So'z va iboralarni yodlash zo'rma-zo'raki emas, balki matndagi so'zlarning doimiy takrorlanishi bilan bog'liq.

### 8. AUDIO-LINGVISTIK USUL — 오디오 언어학적 방법

Bu usul eshitish xotirasi yaxshi rivojlangan odamlar uchun javob beradi. Audio-lingvistik metod orqali nafaqat audio yozuvlarni tinglash yoki xorijiy tildagi filmlarni tomosha qilish orqali yangi so'zlarni yodlaysiz, balki ularning ovozini ona tilida so'zlashuvchilarning og'zidan eshitasiz, bu to'g'ri talaffuz uchun juda muhimdir.

### 9. ISMIMNI ESLAB QOL — 이름을 기억하라

Bu usul chet tilidagi so'zlarni yodlashning eng samarali va interfol usullaridan biri hisoblanadi. Bu usulning samaraliligi shundaki, bunda o'qituvch va barcha talabalar birdek ishtirok etishadi. Asosiy talab diqqatni boshqa joyga qaratmaslikdadir. Bu usulda o'qituvchi yodlanishi kerak bo'lgan so'zlarning o'zbek tilidagi tarjimalarini doskaga yozadi va birinchi so'zni o'zining ismi sifatida belgilaydi. Birinchi so'zni o'qituvchi talaffuz qiladi va o'chiradi. Keyin birinchi talaba o'qituvchining "ismini" takrorlaydi va doskadagi ikkinchi so'zni talaffuz qiladi. Keyin uchinchi talaba davom ettiradi.

Quyidagi so'zlarni ushbu usul orqali yodlash jadvalini ko'rib chiqamiz.

예: 이름, 고향, 한국, 직업, 사람, 중국, 미국, 친구, 아버지, 어머니, 학생, 선생님

O'qituvchi	이름

1-talaba	이름, 고향
2-talaba	이름, 고향, 한국
3-talaba	이름, 고향, 한국, 직업
4-talaba	이름, 고향, 한국, 직업, 사람
5-talaba	이름, 고향, 한국, 직업, 사람, 중국
O'qituvchi	이름, 고향, 한국, 직업, 사람, 중국, 미국
1-talaba	이름, 고향, 한국, 직업, 사람, 중국, 미국, 친구
2-talaba	이름, 고향, 한국, 직업, 사람, 중국, 미국, 친구, 아버지
3-talaba	이름, 고향, 한국, 직업, 사람, 중국, 미국, 친구, 아버지, 어머니
4-talaba	이름, 고향, 한국, 직업, 사람, 중국, 미국, 친구, 아버지, 어머니, 학생
5-talaba	이름, 고향, 한국, 직업, 사람, 중국, 미국, 친구, 아버지, 어머니, 학생, 선생님

## 10. TESKARI USUL — 반대 방식

Ushbu usuldan foydalanish nafaqat so'zning tovushini, balki uning imlosini ham eslab qolish imkonini beradi. Bu usulda talaba qalam va qog'oz varag'ini olishlari kerak. Usulning mohiyati so'zni teskari yozishdan iborat.

Misol - 예: 다리미

\_\_\_\_\_이

\_\_\_\_\_\_미

\_\_\_이미

\_\_리미

\_아리미

다리미

Shuni unutmaslik kerakki, chet tilidagi yangi lugʻatni yodlashning qaysi usuli tanlanmasin, muvaffaqiyat erishish oʻquvchilarning xohishi va qatʻiyatiga bogʻliq va faqat mashaqqatli mehnat qilinsagina kerakli natijaga erishish mumkin!

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayev “Soʻz yodlash sirlari”. Toshkent 2015, “Istiqlol nuri” nashriyoti
2. Sh.M.Rahmonov “Mukammal xotira”. 2014-yil “Yangi asr avlodi” nashriyoti.
3. Belinda Young-Davy “Lugʻatni mashq qilishning 50 usuli”. 2013 yil, Wayzgoose Press.
4. Aziza, O., & Sevara, S. (2023). INGLIZ TILI ME'YORIY TALAFFUZ STANDARTLARINI O'QITISH MEZONLARI. *Involta Scientific Journal*, 2(1), 138-141.
5. Shermamatova, S. va Tursunova, M. (2022). HOZIRGI TA'LIM SIFATINI OSHLASH BO'YICHA ETILGAN ISHLAR ULARNING SAMARALIGI.
6. Shermamatova, S., & Odiljonova, M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA METAFORALARNING FOYDALANISH TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 91-97.
7. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). DEMOKRATIK JAMIYATNING MA'NAVIY ASOSLARI. *PEDAGOGIKA FANIDAN JORIY TADQIQOT JURNALI*, 2(12), 130-134.